




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MUHOFAZA ETILADIGAN HUDUDLAR VA ULARDAN FOYDALANISH

Muhammadiyev Azizbek Muhiddinovich

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti 3-bosqich talabasi
muhammadiyevazizbek7@gmail.com

Ilmiy rahbar: Kubayev Djasur Abdumuminovich

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti assistenti

j.kubayev@tiiame.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18627599>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 31-yanvar 2026 yil
Ma'qullandi: 6-fevral 2026 yil
Nashr qilindi: 13-fevral 2026 yil

KEY WORDS

*davlat qo'riqxonalari,
davlat milliy tabiat bog'lari,
davlat tabiat yodgorliklari, qizil
kitob, o'simlik, hayvonot olami,
tabiat, o'rmon.*

ABSTRACT

Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida muhofaza etiladigan hududlarning tashkil etilishi, ulardan foydalanish, bu hududlarda o'simlik va hayvonot olami kabi ma'lumotlar tahlili ko'rib chiqilgan. Tabiatni, hayvon va o'simlik olamini saqlab qolish bo'yicha yangi tavsiyalar taklif etilgan.

Kirish. O'zbekistonda tabiiy sharoitni asl holicha saqlab qolish va uni muhofaza qilish ishlari O'zbekistonning mustaqillik yillaridan boshlab jadal ortib bormoqda. Bu birinchi navbatda O'zbekistonning davlat siyosatini to'g'ri yuritilishi bilan izohlansa, ikkinchi navbatda mamlakatimizda yashovchi o'zbek xalqining ona tabiatni qadimdan ardoqlab kelishidadir. Bu holat hatto xalqimizning urf-odat va an'analarida ham yaqqol aks etib turadi. Ayniqsa, O'zbekiston mustaqillikka erishgach tabiatni asrash va uni muhofaza qilish ishlarini davlat siyosati darajasiga ko'tardi. Bu borada keng ko'lamli islohotlar olib bormoqda. Tabiatni muhofaza qilishga doir juda ko'plab qonun va qarorlar, huquqiy me'yoriy xujjatlar qabul qilingan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun to'lovlar tizimini takomillashtirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, qishloq va suv xo'jaligi vazirligining o'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi huzurida manzarali bog'dorchilik va o'rmon xo'jaligi respublika ilmiy-ishlab chiqarish markazini tashkil etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, bioresurslardan foydalanish me'yorlari haqida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga kiritish haqida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, tabiatdan maxsus foydalanganlik uchun to'lovlar tizimini takomillashtirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, shular jumlasidandir. O'zbekiston Respublikasining "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida" gi Qonunining 5-moddasiga muvofiq muhofaza etiladigan tabiiy hududlar belgilangan maqsadi va rejimiga ko'ra quyidagi toifalarga bo'linadi:

- davlat qo'riqxonalari;
- majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari;
- davlat milliy tabiat bog'lari;
- tarixiy yodgorliklar;
- ayrim tabiiy ob'yektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan hududlar;
- muhofaza etiladigan landshaftlar;
- ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlar.

Mamlakatimizda qo'riqxonalarning tashkil etilishi va ularga asoslangan holda alohida muhofaza qilinadigan hududlarning tashkil etilib, kengaytirilishi Respublikamiz hududi tabiatini muhofaza qilishda beqiyos o'ringa ega. Qo'riqxonalardan tashqari milliy bog'lar, buyurtmaxonalar va shu kabi hududlarni tashkil etish asosan qo'riqxonalarga asoslangan holda olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida tabiatni muhofaza qilish sohasidagi bir qancha xalqaro konvensiyalar, shu jumladan Bioxilma –xillikni saqlash bo'yicha konvensiyaga qo'shilgan. Davlatimiz tomonidan ushbu xalqaro hujjatlar katta ahamiyat kasb etadi. Hozirgi paytda muhofaza qilinadigan hududlar tizimi tarkibiga umumiy maydoni 2164km² 9 ta davlat qo'riqxonasi, maydoni 6061 km² bo'lgan 2ta milliy park, maydoni 12186,5 km² bo'lgan 9ta davlat buyurtmaxonalar, 1ta Respublika noyob hayvonlarni ko'paytirish markazi kiradi. Lekin muhofaza qilinadigan hududlarning faqatgina 1,8%igina uzoq muddatli hisoblanadi. Bu albatta yetarli emas. Qo'riqxonalar mamlakatning muhofaza qilinadigan hududlar tizimini 10%ini tashkil qiladi. 1976-yilda Ugam Chotqol milliy parkini tashkil qilish bilan Milliy parklar muhofaza qilinayotgan jami hududning 30%ini tashkil qiladi. Davlat buyurtmaxonalar muhofaza hududlarini 39%ini tashkil qiladi.

Muhofaza qilinadigan hududlar tizimi O'zbekiston viloyatlari va tabiiy ekologik zonalar bo'yicha nihoyatda notekis joylashgan. Ularning asosiy qismi Toshkent viloyatiga to'g'ri keladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar mintaqaviy umumiy rivojlanish strategiyasining elementiga aylanmagan.

Muammoning qo'yilishi. Muhofaza qilinadigan hududlar tizimi O'zbekiston viloyatlari va tabiiy ekologik zonalar bo'yicha nihoyatda notekis joylashgan.

Hozirgi kunda tabiatning ekologik holati buzilishi, tuproq, havo va suvning zararli moddalar bilan ifloslanishi, o'simlik va hayvonlarning foydali turlari kamayib ketishi, ya'ni ko'plab oziq-ovqat sifatida ishlatilishi, o'tloqzorlar, to'qayzorlar va tog'-yonbag'rlarida hayvonlarni boqish, buta hamda daraxtlarni kesilishi hamda kuzda daraxtlarni qurigan barglarini yoqib, undan chiqayotgan zararli gazlar bilan atrof muhitni zaharlanishi hozirgi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Bundan 40-45 yil muqaddam tekislikdagi daryo va soylar qayirlar ancha zich to'qay va qamishzorlar bilan qoplangan bo'lib, to'qaylarda turang'il, tol, jiyda yulg'un kabi daraxt va butalar qalin o'sgan. Lekin afsuski keyingi yillarda to'gon, suv omborlari va kanallar qurilishlari, daryo hamda soy suvlari kamayishi, sizot suvlari sathi tobora kamayib, ularning minerallashuvi va sho'rliigi ortishi natijasida bu to'qaylar soni ko'payib bormoqda, ayniqsa quyi Amudaryoda.

Yangi yerlarni o'zlashtirilishi, cho'l zonasida yangi –yangi shahar va yo'llar qurilishib, yangi konlar qurilishi hamda yuqorida aytib o'tilganidek ulardan chiqayotgan zararli, zaxarli gazlar birinchi navbatda atmosferaga tarqaladi hamda insonlarga, o'simlik va hayvonot olamiga jiddiy ta'sir etadi.

Tadqiqot tahlili va natijalari. Muhofaza qilinadigan hududlar tizimi O'zbekiston viloyatlari va tabiiy ekologik zonalar bo'yicha notekis joylashgan.

Respublika vodiylarida o'rmon maydoni 210ming gektar. Unda jiyda, turong'i, akatsiya, tol, terak, zarang, qayrag'och va chinor kabi daraxtlar o'sadi. Hozirgi kunda

o'rmon maydonlarini 210 ming hektardan ko'paytirish uchun quyidagi tadbirlarni olib borish kerak:

- Yosh nihollar nobud bo'lishini oldini olish;
- O'rmon resurslarini qayta tiklash va kontorligini oshirish;
- O'rmonlarni yong'indan, har-xil zararkunandalardan va kasallanishdan, zaharli va kimyoviy moddalar bilan ifloslanishdan saqlash.

Bundan tashqari yana yaylovlarni ahvolini yaxshilash, ularni qayta tiklash uchun quyidagi tadqiqotlarni olib borish kerak:

- Yaylovlardan to'g'ri foydalanish;
- Tog'oldi va chala cho'l zonasidagi katta-katta maydonlarni qishloq xo'jaligida maqsadli foydalanish;
- cho'lda saksovul daraxtlarini ko'paytirish ularni kesmaslik;
- Tog'larda archa kabi qimmatbaho daraxt va buta kabi o'simliklarni ko'paytirish;
- Yaylovlarda qo'y, mol boqish me'yoriga amal qilish.

Shuni ta'kidlash joizki, har bir viloyatda muhofaza qilinadigan hududlarni tashkil etib, u yerga barcha muhofazatalab o'simlik va hayvonlarni kiritib, asrab avaylash bo'yicha tadbirlar o'tkazish lozim. Tog'ri, bunday hududlar hozirda tashkil qilingan, biroq, yuqorida aytib o'tilganidek hududlar kesimida teng taqsimlanmagan. Yana bunday hududlarni tashkil etib u yerga barcha turdagi daraxtlarni ekish, hayvon va o'simliklar uchun kerak bo'lgan barcha sharoitlarni yaratish lozim. Chunki har bir qushlarni iste'mol qiladigan har bir o'simligi alohida-alohida bo'ladi. Har bir joyni suv bilan ta'minlash ya'ni qushlarga in quriladi har birilarini inlariga tomchilatib sug'orish texnologiyalari o'rnatiladi. Hayvonlarga ham o'zlariga mos holda yashashlariga sharoit yaratib beradilar.

Xulosa. Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar mintaqaviy umumiy rivojlanish strategiyasining elementiga kirmagan. Bunday muhofaza etiladigan hududlarni ekologik jihatdan baholab yuqoridagi usullardan kelib chiqib tahlil natijalarini ekologik jihatdan baholaydigan bo'lsak tabiatning ekologik holati buzilishi, tuproq, havo va suvning tiriklik uchun zararli moddalar bilan ifloslanishi oldi olinadi, hamda o'simlik va hayvonlarning foydali turlari kamayib ketishi havfi ancha kamayadi. O'tloqzorlar, to'qayzorlar va tog' yon bag'irlaridagi buta hamda daraxtlarning tartibga keltirish holatlar natijasida tabiatni muhofaza qilish ishlari yo'lga qo'yiladi. Bu faoliyat natijasida tabiatimizni yanada asrab avaylash imkoniyati oshadi. Yana shuni ta'kidlash mumkinki, mamlakatimizda qo'riqxonalarini rivojlantirish va kengaytirish tabiatni muhofaza qilishdagi bajarilishi shart bo'lgan asosiy faoliyatdir. Shu tufayli ham biz ham bunday hududlarni saqlab avaylashimiz, undagi har bir tabiat in'omlarini asrashimiz, kelasi avlodimiz uchun yetkazishimiz, har birimizning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. P.Baratov. Tabiatni muhofaza qilish. Toshkent. O'qituvchi.1983-yil
2. www.ziyo.net
- 3.O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. Toshkent, 2000 y.
- 4.A.Ergashev, T.Ergashev. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. Toshkent. 2005 y.